

OMONIMLAR LINGVOPOETIK BIRLIK SIFATIDA

Rajabov Feruz

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa dokori (PhD), QarMII akademik litseyi katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Bu maqolada omonimlarning badiiy mantdagi o'zni va ularning badiiy estetik vazifalari lingvopoetik tahlil tamoyillari hamda ilmiy manbalarga tayangan holda tahlil qilishga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar: *omonim, omoleksema, tasdir, askiya, o'lan, alliteratsiya.*

O'zbek tili boshqa tillar kabi omonim so'zlarga boy bo'lgan tillardan biridir. Hatto bir necha asr ilgari yashagan mumtoz yozuvchi va shoirlarimiz ham omonimlarning xilma-xil ma'nolaridan keng foydalanib kelishgan. Shu sababli qadimgi dunyoning eng buyuk mutafakkiri Aristotel «Nomlar ichida omonimlar sofistlar uchun foydali, chunki ular yordami bilan sofistlar hiyla-nayrang ishlatadi. Sinonimlar esa, shoirlar uchun foydali»¹,

Tilshunoslikda omonimiyaning uch ko'rinishi mavjudligi ta'kidlanadi: omoleksema, omograf va omofonlar². Ayonki, Sharq nazmida, chunonchi, o'zbek she'riyatida omonimlar muhim ahamiyat kasb etgan. Shaklan bir xil, biroq boshqa-boshqa ma'nolarni ifodalovchi omonimlar she'riyatda nozik so'z o'yinlarini ishlatish, so'zlarning ohangdoshligini oshirish, qofiyalarni tugal voqelantirishga keng imkon beradi. Ular muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalashning muhim vositalaridan biri sanaladi. Omonimlarning ana shu xususiyatlarini teran anglagan jadid adabiyoti namoyandalari o'z she'rlari tilini yaratishda ulardan o'ta mohirlik bilan foydalanganlar. Masalan, Is'hoqxon Ibratning quyidagi baytiga e'tibor qarataylik:

***Yoshlar** bazm-u taashshuq suhbatlari gul chehralar,*

*Birla doim ijtihodu chehralar qarilar ko'zida **yoshlar**.*

Shoir aytmoqchi, zamona yoshlari faqat bazmu ishratlar, "gul chehralar", ya'ni go'zal, chiroyli mahbubalarni sevish, ular suhbatida bo'lish bilan ovora bo'lsa, "qarilar" esa ko'zlarida yosh bilan har doim yangiliklarni izlab topish uchun harakat qilmoqda. Bayt mazmunidan anglashiladiki, shoir zamona yoshlarini ijtimoiy faollikka undamoqda. Is'hoqxon Ibratning ma'rifiy g'oyalari ushbu baytda

¹ Аристотель. Риторика. III. Античные теории языка и стиля. Москва, 1936. -с. 177.

² Rahmat ullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T.: Universitet, 2006. –B. 45.

o‘z ifodasini topgan. Bu yerda omonim birlik lingvopoetik vosita bo‘lib, *tasdir*³ she‘riy san‘ati uchun ziynat bo‘lgan.

Shoir mazkur baytida omonimik xususiyatli so‘zlardan mohirlik bilan foydalangan. Baytning boshlanishi ham, tugashi ham shunday xususiyatli so‘zdan iboratligi uning ta‘sirchanligini, shubhasiz, oshirgan. Birinchi misradagi *yoshlar* so‘zi “*inson hayotidagi bosqich, davr, umr*” (O‘TIL, I, 264-b.) ma‘nosi bilan bir qatorda “*yetarli tajribaga ega bo‘lmagan, tajribasiz*” (O‘TIL, I, 264-b.) ko‘chma ma‘nosida qo‘llanilgan. Ikkinchi misradagi *yoshlar* so‘zi esa “*qattiq og‘riq, qayg‘u yoki kuchli sevinch-shodlik va shu kabilar natijasida ko‘z bezlaridan ajralib chiqadigan tiniq suyuqlik*” (O‘TIL, I, 264-b.) ma‘nosini ifodalaydi. She‘r mohiyatiga chuqurroq va teranroq yondashsak, unda zamona yoshlari kekxa avlodning qayg‘uli ko‘z yoshlariga qiyosan o‘xshatilgan. Shoir bu bilan zamona yoshlarining xatti-harakati kekxa avlod qalbiga beqiyos dard, alam bo‘lib kirganligini ta‘kidlamoqchi bo‘ladi. Millat taqdirini o‘z taqdiri bilan o‘zaro chambarchas bog‘lagan jadid adabiyoti namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy millatning boshiga tushgan og‘ir savdo, kulfat va fojealar sababini bayon etadi:

*Hamma gul dasta qilsa, ne terarmiz — xor, biz, millat,
Shifirguchi, yamoqchi, xayrchi — xor, biz, millat.*

Har ikkala misrada qo‘llanilgan *xor* so‘zi tarixiy-etimologik qatlam nuqtai nazardan forscha-tojikcha bo‘lib, birinchi misradagi *xor* so‘zi “*tikan, yantoq*” (NAL, 661-b) ma‘nosida, ikkinchi misradagi *xor* so‘zi “*e‘tiborga, hurmatga sazovor emas; bee‘tibor; kamsitilgan, tahqirlangan*” (O‘TIL, II, 333-b.) ma‘nosida qo‘llangan. Mumtoz adabiyotda *xor* so‘zining ko‘chma, majoziy ma‘noda, ya‘ni “*qiynoq*” ma‘nosida ham qo‘llanilishi mavjud bo‘lib, shoir o‘zining yuqoridagi baytiga mazkur so‘zning shu ma‘nosini ham singdira olgan. Siddiqiy Ajziyning quyidagi baytida omonimlar mahorat bilan qo‘llanilgan:

*Siynam, ahboblarim, otashi g‘amdandur dog‘,
Tanda ruhim necha osori alamdandur dog‘.*

Baytning birinchi misrasidagi *dog‘* — “*og‘ir musibatdan, qayg‘u-kulfatdan ko‘ngilda qolgan alam*” (O‘TIL, I, 235-b) ma‘nosini, ikkinchi misradagi *dog‘* — “*kuygan joy*” (NAL, 200-b) ma‘nosini anglatadi.

Mavzu talabidan kelib chiqib, jadid lirik asarlari, xususan, Cho‘lpon she‘riyati va lug‘atlardagi ayrim omonimlarni qiyosan o‘rganishga harakat qildik.

«O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da ham *oy* so‘zining, asosan, ikkita (1. Samoviy jins; 2. Vaqt, o‘lchov birligi) ma‘no ifodalashi qayd etilgan. Xuddi shu holat Cho‘lpon she‘riyatida ham kuzatiladi. Masalan, uning

*Shaftolida oy nurini ko‘rgach, yana ruhim
Oylar o‘tib yosh davriga suqlar kabi boqdi*

³ Qarang. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. I qism (darslik-majmua). – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 178

baytidagi birinchi misrada qo‘llangan *oy* so‘zi samoviy jism ma’nosini, ikkinchi misrada qo‘llangan *oy* so‘zi esa vaqt, o‘lchov birligi ma’nosini ifodalaydi. Cho‘lpon she‘riyati tilida esa ko‘k omonimi quyidagi ma’nolarda qo‘llangan:

ko‘k I – *osmon:*

Ko‘k yulduzli izziz edi, yer yulduzi kuchsiz, har ikkisi ketdi.

Ko‘nglimga yaqin narsani izlab kecha-kunduz oy-yillarim o‘tdi;

ko‘k II – *ko‘k rang:*

Sening ko‘k toza yuzing

Ko‘zga taqir ko‘rinmaydir;

ko‘k III – *o‘t-o‘simlik, ko‘kat:*

Sevinchi ber: ko‘k yalangga

Qora bulut chodir qurdi.

ko‘k IV – *ko‘klam, bahor:*

Ko‘klamoyim yo‘lga chiqkan, ko‘klamoyim qo‘zg‘algan,

Ko‘k ko‘ylakning bitishiga, uncha ko‘p ham qolmagan;

ko‘k V – *erk, erkin, ozod, mustaqil, hurlik:*

Siz deysizkim, men ko‘klarni o‘ylayman,

Yer betiga sira nazar solmayman.

She‘r ruhidan kelib chiqilsa, *ko‘k* bu o‘rinda istiqloq, milliy ozodlik ramzi ekanligi bilinadi. Alohida ta’kidlash o‘rinliki, Vatan va xalq erki, mustaqilligi uchun aziz umrini baxshida etgan, o‘zbek tilini o‘z ichki imkoniyatlari asosida boyitishni nazarda tutgan Cho‘lpon qadimgi turkiy so‘zlardan milliy ruhni uyg‘otish vositasi sifatida keng foydalangan. Shoirida fikru tuyg‘ularini ramzlar vositasida ifodalashga moyillik kuchli. Buni birgina *ko‘k* omonimining «*erk, erkin, ozod, mustaqil, hurlik*» ma’nosini qayta iste’molga kiritishga harakat qilganligidan ham anglash mumkin.

O‘zbek xalqi askiya va o‘lan - qo‘shiqlarda tilning ana shu boyligidan ustalik bilan foydalangan. O‘tmishda xalq og‘zaki ijodida omonimlardan foydalanib tuyuq shaklidagi qo‘shiqlar yaratilgan, yozma adabiyotda esa, shoir va yozuvchilar undan keng foydalanganlar.

G‘afur G‘ulom ham o‘z poeziyasida ona tilining leksik boyligidan ijodiy foydalandi. U aytmoqchi bo‘lgan fikrini kuchaytirish maqsadida leksik grammatik omonimlardan, omoforma, omofon va omografiklardan o‘rinli foydalandi. Omonim so‘zlar o‘zining ma’no xususiyatlariga ko‘ra turlichadir. Ular ikitadan to‘rt - beshtagacha yetadi va har biri alohida ma’no bildiruvchi mustaqil so‘z sanaladi. Adib she‘rlarida *ot, yuz, oy, soch, qirq, yosh* kabi sodda o‘zak-negiz shaklida tuzilgan omonimlar ko‘plab ishlatiladi. Chunonchi, *ot* so‘zi shoir asarlarida o‘zaro yaqin aloqasi bo‘lmagan ikki xil ma’noda qo‘llangan:

1. Ish hayvoni ma’nosida:

Atommi? - Yaxshi gap, balki kolxoza

Tegirmon charxiga ot bo‘lib qolur. (G‘afur G‘ulom)

2. Ism, nom ma'nosida:

*So'nggi jang talabmi oliy janoblar,
Tarixda zoti yo'q ot bo'lib qolur.* (G'afur G'ulom)

Komik elementlarga ega bo'lgan asarlarda, askiya so'z ustalari tajnis usulidan foydalanadilar. G'afur G'ulom ham kitobxonda xushchaqchaqlik, kulgi kabi psixik holatlarni qo'zg'atish maqsadida buncha tez - tez murojat qiladi:

*Tilimi tilimni ming tilim qilgan
Qirqmalar bog'ladi yukin qovg'aga,
Asaljon Shakarov pasporti bilan
Bebolat jo'naydi do'stga sovg'aga.* (G'afur G'ulom)

«Kuz keldi» she'ridan olingan bu parchada «tilim» so'zi ikki xil ma'noda qo'llangan: 1.Tilim - bo'lak, qism, parcha. 2.Tilim - og'iz bo'shlig'idagi organ. Shuningdek, omonimik birliklar alliteratsiya (tavze) uchun lingvopoetik vosita bo'lgan.

G'afur G'ulom o'z she'rlarida biror o'zbekcha so'zni ishlatib, undan so'ng shu so'zning rus tilidagi ekvivalentligini keltirish bilan tajnisning yangicha namunasini yaratadi. Buni uning «Biz yengamiz» she'rida yaqqol ko'rish mumkin:

*Bu bog'larda bitgan har bir qay - anor,
Yo bag'riga otilajak granat...* (G'afur G'ulom)

Bu she'rida muallif qiz bilan yigitning jamiyat uchun bajargan foydali ishlarini so'z o'yini bilan jonli tasvirlay olgan:

*Suygan yigit olg'a safda snayper,
Raport berar komandirga yuzma-yuz,
Suyishgan qiz terimdagi planin,
Bu tomonda bajarmoqda yuzma-yuz.* (G'afur G'ulom)

Bu parchaning ikkinchi misrasidagi «yuzma-yuz» so'zi ro'baro', to'rtinchi misradagi «yuzma-yuz» esa protsent ma'nosida qo'llangan.

Bulardan tashqari, och - 1) buyruq fe'lining ikkinchi shaxs birlik formasi; 2) och qolish; Soch - 1) buyruq fe'lining ikkinchi shaxs birlik formasi, 2) kishi boshidan o'sib chiqqan qil; qirq - 1) buyruq fe'lining ikkinchi shaxs birlik formasi, 2) son, raqam (40); 1) kishi ko'zidan oqadigan suyuqlik, 2)katta - kichiklikni bildiradi; ko'k - 1) osmon, 2)o'simlik, 3) teks tikmoq fe'lining buyruq formasi; chang - 1) go'zal, 2) urib chalinadigan muzika asbobi; ko'r - 1) ko'rmaydigan kishi, so'qir, 2) qara, qaramoq fe'lining buyruq formasi; chopmoq - 1) yugurmoq, 2) kesmoq; til - 1) organ, a'zo, aloqa vositasi, og'zaki va yozma shaxs birlik formasi. Bu kabilar G'afur G'ulom poeziyasida uchragan leksik omonimlardir. Bunday misollarni matnda ham ko'plab keltirish mumkin.

G'afur G'ulom poeziyasida omonimlarning qaysi so'z turkumiga oidligi ularning ma'nosiga, yangi so'z yasash usuliga, grammatik xususiyatiga qarab belgilanadi. Masalan: olma so'zi, bir tomondan, meva ma'nosida, ikkinchi tomondan, buyruq fe'lining ikkinchi shaxs birlik formasida qo'llangan.

*Bizda olmalarning besh yuz turi bor;
Roziman, bilfler, jonoqi, qandil...
Olma taqdim etmoq muhabbat ramzi,
Olmada aks etar qonga to'la dil... (G'afur G'ulom)*

Bu o'rinda «olma» predmet ma'nosida qo'llangan. Adib she'rlarida qo'llangan ba'zi grammatik formalar omonimlik xususiyatiga ega. Masalan:

*Oq oydin tong oldi
Uxlamoqdasan. (G'afur G'ulom)*

Parchadan «ol» buyruq fe'li grammatik forma olgan omonim so'zdir. Old-i, oldi. «Old» so'zi egalik qo'shimchasi «i»ni olib «oldi» (oldida) ma'nosini «ol» so'zi kesimlik qo'shimchasi «di»ni olib, oldi (qabul qildi) ma'nosini anglatib kelayotir. «Oldi» so'zi grammatik forma olgan holatda bir xil talaffuz etiladi. Ma'nosi esa har xil. Adib she'rlarida uchragan grammatik omonimlar, birinchidan yuqoridagi kabi sof forma olish yo'li bilan, ikkinchidan, so'zlarning formal holatga kirish va fonetik o'zgarish yo'li bilan hosil qilingan: *yog'-ga; yoqqa* kabi. Shuni aytish kerakki, shoirning badiiy mahorati uning leksik boyligining xilma-xil va rangba-rang bo'lishiga ham bog'liq. Shoir leksikani so'zga qancha boy bo'lsa, uning asarlarining tili va badiiy xususiyati shu qadar yuksak bo'ladi. Akademik shoir G'afur G'ulom so'zga boy shoiridir. U o'z she'rlarida omonimlarning qismlari sanalmish *omofon, omofoma* va *omograflardan* ham ustalik bilan foydalanganki, bu shoir poeziyasining mazmunli chiqishini, kitobxonni har bir ustida chuqur o'ylashga, keng mushohada qilishga majbur etadi. Masalan:

*Bizning bir ellik
Asl tuproqni
Hech qachon yosh kuch
Egallayolmas! (G'afur G'ulom)
Yoki: Kuni kecha birinchi sinfda edi,
Barmoqlar sanardi: «olti, yetti» deb,
Bugun yetinchida... orzu qistaydi:
Ertani o'ylashning payti yetdi deb. (G'afur G'ulom)*

Bu parchalarda shoir omofondan foydalangan. Birinchi to'rtlikda «yot», ikkinchi to'rtlikda «yetdi» omofondir. Omofonlar yozuvda talaffuzi bir-biriga yaqin bo'lgan harflarning mavjudligi bilan xarakterlanadi⁴. Yot - 1) begona, 2) buyruq fe'li. Yod - 1) xotira. Yetti - 1) son, 2) fe'l kabi.

Bular faqat orfografik jihatlarning bir-birlaridan ajratiladi, talaffuzda esa ularni ajratish mumkin emas. Bundan tashqari, adib she'rlarida ishlatilgan quyidagi omofonlarda ham xuddi yuqoridagidek xususiyat mavjud: Urish - fe'lning harakat

⁴ М. Мирзаев, С. Усмонов, И. Расулов, Ўзбек тили, Тошкент, 1966. 29.

nomi formasi. Urish - harbiy harakat. To'n - kiyim. Ton - ovoz. Tursin - buyruq fe'li. Tursin - atoqli ot va hokazolar.

Urush mashinangiz yo'qotmishdir chu,

O'z vaqtida kelgan qadrdon qish bu. (G'afur G'ulom)

G'afur G'ulom omofondan o'tkir satirik vosita sifatida ham foydalangan. Domlaning savodsizligi, o'zi o'qigan qur'on oyatlarini tushunmasligi, shunga qaramay turli yo'llar bilan xalqni aldab kelayotganligi uchun uni masxara qiladi.

Domla avval g'o'ldir, g'uldir duo o'qib,

Allaqaysi go'rdan yolg'on cho'pchak to'qib.

«Vassamoi vattoriqi» qur'onda bor.

Aytganimni qilsang senga rahmat yog'ar,

Bolam Ko'kan - «Xudo tariq eksin» degan,

Omin obla, qadalmasin senga tikan. (G'afur G'ulom)

Shoir she'rlarini kuzatar ekanmiz, unda o'rinli ishlatilgan omoformalarga ham duch kelamiz. Masalan, oqar, yoz kabilar shunday so'zlardir:

Arpa o'rimida kulgan yuzlardek,

Kulimsab boshlandi bu chamanda yoz.

Shoirlik da'vosi bordir qalbingda,

Buni ham nazm etib daftaringga yoz. (G'afur G'ulom)

Parchada keltirilgan yoz - ot, bosh kelishik formasida yoz - buyruq fe'li. Bu so'z o'zining grammatik formasiga ko'ra bir xil talaffuz etilsa ham ma'nolari bir-biridan farqlanadi. Quyida omograflarga G'afur G'ulom she'rlaridan namunalar keltiramiz:

... Million tom kitoblar-la ma'rifat sayqaldir,

Bunda bir marmar lavha - Beshinchi yil zanasi. (G'afur G'ulom)

Yana: ...stonok unga tirak sur'at oqim tok bekorga oqmoqda. (G'. G'.)

Misollarda ishlatilgan «tom», «tok» so'zlari o'zbek tilida mavjud bo'lgan tok (uzum), tom (uy) so'zlariga omografdir. Shuningdek, shoir she'rlarida «may», «to'r» kabi omograflar ham uchraydi.

Yana ko'klam keldi yelmay - yugurmay,

Toklar shonasida taqdim etar May.

O'lmas xalq Vatani bo'sag'asida,

G'alaba asridir bu birinchi May. (G'afur G'ulom).

Buyuk san'atkor ijodiy mehnat tafayli o'z asarlarini yetiltirdi, mukammallashtirdi, ularga sayqal berdi. Pishiq va xaqchil chiqishini ta'minladi. Narsa va hodisalar o'rtasidagi nozik tomonlarga alohida e'tibor qildi. Chidam va sabot bilan ishladi. «Ismsiz she'r zamini yo'q devordir, zaminsiz devor esa g'oyatda be'etibordir» (Fuzuliy), degan hikmatli gapga qattiq amal qilgan holda ish tutdi. Shu sababli uning poeziyasida ishlatilgan omonimlar shoir bir so'z orqali bir necha ma'nolarni ifodalash uchun imkon berdi.

Omonimlar she'riyatda nozik so'z o'yinlarini ishlatish, so'zlarning ohangdoshligini oshirish, qofiyalarni tugal voqelantirishga keng imkon beradigan

lingvopoetik vositalar sirasiga kiradi. Ular muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalashning muhim vositasi sanaladi. Omonimlarning ana shu xususiyatlarini teran anglagan o'zbek adabiyoti namoyandalari o'z she'rlari tilini yaratishda ulardan o'ta mohirlik bilan foydalandilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aliqulov T., Ravshanov M. Lug'atlarda omonimlarning berilishi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1990. -№ 2. –B. 51-54.
2. Аристотель. Риторика. III. Античные теории языка и стиля. Москва, 1936.
3. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. ўзбек тили, Тошкент, 1966.
4. Mahkamova D. Ikki tilli lug'atlarda omonimlarni ajratish masalasi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1980. -№ 4. –B. 67-69.
5. Rahmat ullaev SH. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T.: Universitet, 2006.
6. Sodiqov T. O'zbek shevalarida omonimlar // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1984. -№ 6. –B. 13-16.
7. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. I qism (darslik-majmua). – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 184 b.